

*Azimbek BOZORBOYEV, talaba,
Baxodir ESONBOYEV,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi stajyor o‘qituvchisi*

TURIZM FAOLIYATINING MAZMUNI, NAZARIY ASOSLARI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI

***Annotatsiya.** Ushbu maqola zamonaviy dunyoda turizm faoliyatining mazmuni hamda uning nazariy va konseptual jihatlarini tahlil qiladi. Turizm iqtisodiy o‘shish, bandlik va madaniy almashinuvga sezilarli hissa qo‘shadigan tez rivojlanayotgan soha sifatida qaraladi. Tadqiqot turizmning ko‘p qirrali xususiyatini, jumladan uning iqtisodiy, ijtimoiy va rekreatsion funksiyalarini yoritadi. Shuningdek, maqolada davlatning turizm infratuzilmasini rivojlantirish, huquqiy asoslarni takomillashtirish va barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashdagi roli ta’kidlanadi. Bundan tashqari, turizmning transport, mehmonxona xo‘jaligi va savdo kabi turdosh sohalarga ta’siri ham tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** turizm faoliyati, turizm industriyasi, iqtisodiy rivojlanish, turizm infratuzilmasi, barqaror turizm, bandlik, madaniy almashinuv, turizm siyosati.*

***Аннотация.** Данная статья анализирует содержание туристической деятельности и её теоретические и концептуальные аспекты в современном мире. Туризм рассматривается как быстро развивающийся сектор, который вносит значительный вклад в экономический рост, занятость и культурный обмен. Исследование подчеркивает многогранный характер туризма, включая его экономические, социальные и рекреационные функции. Также подчеркивается роль государства в развитии туристической инфраструктуры, совершенствовании правовых рамок и поддержке устойчивого развития. Кроме того, в статье рассматривается влияние туризма на смежные отрасли, такие как транспорт, гостиничный бизнес и торговля.*

***Ключевые слова:** туристическая деятельность, туристическая индустрия, экономическое развитие, туристическая инфраструктура, устойчивый туризм, занятость, культурный обмен, туристическая политика.*

***Abstract.** This article analyzes the content of tourism activity and its theoretical and conceptual aspects in the modern world. Tourism is considered as a rapidly developing sector that contributes significantly to economic growth, employment, and cultural exchange. The study highlights the multifaceted nature of tourism, including its economic, social, and recreational functions. It also emphasizes the role of government in developing tourism infrastructure, improving legal frameworks, and supporting sustainable development. Furthermore, the article examines the impact of tourism on related industries such as transport, hospitality, and trade.*

***Keywords:** Tourism activity, tourism industry, economic development, tourism infrastructure, sustainable tourism, employment, cultural exchange, tourism policy.*

Turizm bugungi kunda jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo‘lib, ko‘plab mamlakatlarda muhim daromad manbalaridan biriga aylangan. So‘nggi paytlarda turizm insonlarning bo‘sh vaqtini tashkil etish usuli sifatida mashhur bo‘lib bormoqda. Bunga transport va aloqaning jadal rivojlanishi, aholining faravonlik darajasining ko‘tarilishi, insonlarning bo‘sh vaqtining ko‘payishi va unga qadriyat sifatida munosabati shakllanishi yordam bermoqda.

Turistik faoliyat shu qadar o‘ziga xos va ko‘p qirrali bo‘lib, u rekreatsion, kognitiv, gedonistik, kommunikativ va boshqa ko‘plab funksiyalarni o‘z ichiga oladi.

Sayohat paytida insonlar madaniy va dam olish muassasalariga: muzeylarga, teatrlarga, ko'rgazmalarga tashrif buyurishadi, mamlakatlar, hududlarning tarixiy, madaniy, tabiiy xususiyatlari bilan tanishadilar, sayohatning maqsadi butunlay boshqacha bo'lishi ham mumkin. Kishilarning turistik faoliyati insonlarning bo'sh vaqtlari kabi hodisaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'rib chiqilishi kerak. Bo'sh vaqtlarda bilimning turli sohalari bo'yicha yangi narsalar o'rganiladi va bo'sh vaqtni o'zlashtirish amalga oshiriladi. Sayohatning yangi shakllariga, o'quv, kognitiv, biznes-turlar, ekstremal va chang'i sayohatlari, safari sayohatlari, dengiz sayohatlari va boshqalarga ham talab o'sib bormoqda¹³⁶.

Har qanday sharoitda, xususan, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida turizm infratuzilmasini rivojlantirishda davlat asosiy rol o'ynaydi. Deyarli barcha davlatlar milliy iqtisodiyotida turizm tarmog'ining ahamiyatini oshirishga harakat qilishadi. Chunki, turizm milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda quyidagi ustuvorliklarga ega: mahalliy ishchi kuchlarini malakali mehnat va yashash sharoitlari bilan ta'minlash manbai; bozorni shakllantirish hamda kapital investitsiyalarning oqib kelish mexanizmi; qurilish (mehmonxonalar, kempinglar, motellar), kommunikatsiya (uyali, tele va optik aloqa), transport (avtomobillar, avtobuslar, xalqaro andozolardagi temir yo'l vagonlari, samolyotlar), shuningdek xizmat ko'rsatish infratuzilmasi (avto yoqilg'i quyish stantsiyalari) kabi sohalarga yangi texnologiyalar va nou-xau joriy etish vositasi; milliy xalq hunarmandchiligini rivojlantirish vositalari; mamlakatda va hududda siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy holatni barqarorlashtirish omillari; tarixiy yodgorliklar va madaniy merosni asrash usullari; davlatning valyuta daromadlarini samarali oshirish vositalari¹³⁷. Davlat turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun uning huquqiy va iqtisodiy asoslarini yaratadi, bu soha uchun kadrlar tayyorlash masalasini yo'lga qo'yadi, viza tizimini soddalashtiradi, turistik mahsulotlar va an'anaviy tovarlarni ishlab chiqarishni rag'batlantiradi¹³⁸.

Turizm mamlakatda iqtisodiy o'sish va aholi bandligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan asosiy iqtisodiy faoliyat turidir, chunki u iqtisodiyotning transport, mehmonxona va restoran xizmatlari, savdo, qurilish, iste'mol tovarlari kabi ko'plab asosiy tarmoqlariga katta ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, turizm mamlakatning dunyoda nufuzini mustahkamlash, qadriyatlarimizni shakllantirish va ko'p asrlik madaniy almashinuv, tillar xilma-xilligi va bunyodkorlik samarasi bo'lgan mamlakat jozibadorligini oshirishga hissa qo'shishning muhim vositasi sanaladi.

Bundan tashqari, turizm biznes yoki dam olish maqsadida ko'proq sayohat qiladigan fuqarolar hayotining tobora muhim jihatiga aylanib bormoqda. Mamlakatdagi madaniy va tabiiy merosga, shuningdek, an'analar va zamonaviy madaniyatga ta'sir ko'rsatadigan faoliyat turi sifatida turizm mintaqaning iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi.

Shunday qilib, turizm murakkab tarmoqlararo kompleks bo'lib, u iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlarining ham davlat, ham mintaqaviy darajada ijtimoiy-iqtisodiy o'zaro munosabatlarini tartibga solishga tizimli yondashuvni talab

¹³⁶ Hamroyev H.R. Turizmologiya. O'quv qo'llanma. Buxoro. 2023. – 236 b.

¹³⁷ Usmonov M.R. "Turizm geografiyasi". Samarqand – 2020. – 281 b.

¹³⁸ Abduvohidov A., Qutlimurotov F. – Turizm iqtisodi. – O'quv qo'llanma. – TDIU, 2010 y. – 160 b.

qiladi. Dunyodagi barcha mamlakatlar iqtisodiga ta'sir ko'rsatgan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy muammolar turizm xizmatlariga bo'lgan talabga sezilarli ta'sir ko'rsatdi, shuning uchun turizmga innovatsion yondashuv masalasi keskin tus olmoqda¹³⁹.

2019-yil yakuniga ko'ra turizm sohasi yoqilg'i va kimyo sanoatidan so'ng dunyoning uchinchi eng yirik eksport tarmog'iga aylandi. Ushbu sohadagi eksport hajmi 1,7 trilion AQSh dollariga yetdi. Turizmga to'g'ri keladigan kunlik eksport hajmi 5 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Butunjahon sayohat va turizm kengashi ma'lumotlariga ko'ra turizmning jahon YaIMdagi ulushi 10,3% ni, yillik o'sish sur'ati 3,5% ni tashkil etdi. Ushbu sohadagi o'sish sur'ati ketma-ket to'qqiz yildan buyon jahon YaIM o'sish sur'atidan yuqori bo'lmoqda. Turizm yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha ham dunyo iqtisodiyotining muhim lokomotivi sanaladi. Dunyo bo'yicha oxirgi besh yilda yaratilgan yangi ish o'rinlarining to'rt dan bir qismi ham aynan turizm sohasiga to'g'ri keladi. Butunjahon turizm va sayohatlar kengashi metodologiyasiga ko'ra, turizm mamlakat iqtisodiyotiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, milliy iqtisodiyot tarkibidagi to'laqonli tarmoq sifatida ham gavdalanadi. Turistik safarlar turistlar tomonidan muayyan tovar va xizmatlarga talabni taqozo qiladi hamda ushbu tovar va xizmatlarning ko'proq ishlab chiqarilishiga olib keladi. Natijada, mamlakat YaIM hajmi ortadi. Shuningdek, turizm soha rivojlanish bo'yicha unga yaqin bo'lgan tarmoqlardan ham ko'proq qo'shilgan qiymatni yaratadi.

1-jadval

O'zbekiston turizm rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

T/r.	Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	O'sish dinamikasi
1.	Xorijiy turistlar soni (mln. kishi)	1,9	5,0	5,2	keskin oshgan
2.	Turizm daromadi (mlrd. AQSh doll.)	0,8	1,6	2,0	barqaror o'sish
3.	Turizmning YaIMdagi ulushi (%)	2,0	3,2	3,5	oshib bormoqda
4.	Ichki turistlar soni (mln. kishi)	12	16	18	faol o'sish
5.	Mehmonxonalar soni	1100	1250	1400	infratuzilma rivoji
6.	Turizmga band bo'lganlar (ming kishi)	250	300	350	yangi ish o'rinlari

Mamlakat xalqaro turizm bozori jarayonlarida ishtiroki orqali valyuta kirib kelishini ta'minlaydi hamda to'lov balansi holatining yaxshilanishiga olib keladi. Daromadlarning xalqaro turizm tomonidan generatsiyasi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga kiritiladigan investitsiyalarga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, ko'p tarmoqli samara orqali iqtisodiy o'sish va rivojlanishga olib keladi. Shunday qilib, ishlab chiqarishni rivojlantirishdan tashqari, mamlakat infratuzilmasi va transport, aloqa liniyalari, savdo aloqalari va boshqalarni takomillashtiradi, bu esa oxir-oqibat iqtisodiy tizimni qayta tuzilishiga olib keladi. Bundan tashqari, turizm turistik manzillarda turistlarning turli tovar va xizmatlarga talabi sababli turizm bozoriga bilvosita xizmat ko'satuvchi sohalardagi ishlab chiqarishni to'g'ridan-to'g'ri rag'batlantiradi hamda yangi tarmoq va faoliyat shakllarini yaratish orqali mamlakatning iqtisodiy tarkibini yangilanish jarayonini qayta tiklaydi. Turizm sohasida va uni bilvosita qo'llab-quvvatlovchi sohalarda yangi ish o'rinlari vujudga keladi va ular mamlakatdagi ishsizlik darajasini kamaytiradi. Turizm bozori

¹³⁹ Akhmadjonov O., Abdug'afrov B. Turizmning o'zbekistondagi faoliyati // "Scientific progress" ilmiy elektron jurnali. – 2022. 572 bet.

iqtisodiyotning ko'pgina boshqa sohalarida faoliyat yuritayotgan kompaniyalar, korxonalar o'rtasida hamkorlikni yo'lga imkon beradi. Natijada bunday hamkorlik iqtisodiy munosabat va tarmoqlarning paydo bo'lishiga olib keladi¹⁴⁰.

Xulosa qilib aytganda, turizm faoliyati mazmunan murakkab va ko'p qirrali tizim bo'lib, u iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarning o'zaro uyg'unlashuvi asosida shakllanadi. Ushbu faoliyat nafaqat aholining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish vositasi, balki milliy iqtisodiyotning muhim drayverlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Turizmning tarkibiy elementlari va funksional yo'nalishlari uni boshqa sohalar bilan chambarchas bog'laydi hamda ko'p tarmoqli integratsiyani talab etadi.

Shu bilan birga, turizmni o'rganishning nazariy-konseptual jihatlari ushbu sohani tizimli ravishda tahlil qilish, uning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash va samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm infratuzilmasining rivoji, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash siyosati hamda xalqaro hamkorlikning kuchayishi ushbu tarmoqning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Natijada, turizm iqtisodiy o'sish, bandlikni oshirish, hududiy rivojlanish va milliy madaniyatni targ'ib etishda muhim omil sifatida namoyon bo'lib, uning samaradorligini oshirish zamonaviy sharoitda ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

¹⁴⁰ Muxitdinov X. Sh., Ochilova J. G. Turizm tushunchasi, turlari va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati// "Ilmiy anjumanlar" ilmiy elektron jurnali. – 2025. 619-620 bet.